

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARI UMUMIY LUG'ATLARIDA KONCHILIK TERMINLARINING IFODALANISHI

Xakimova Dilrabo Yo'ldoshovna

Renessans ta'lim universiteti, katta o'qituvchisi

E-Mail: hakimova1971@list.ru

Tel: (97) 297 95 55

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15730434>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek va fransuz tillaridagi konchilik terminlarining umumiy lug'atlardagi ifodalanishi tahlil qilinadi. Terminlarning umumiy va xususiy turlarga ajratilishi, ularning leksikografik talqini, fransuz tilida konchilik terminologiyasi tizimi qanday shakllanganligi hamda o'zbek tiliga qanday yo'llar bilan o'zlashtirilgani yoritilgan. Shuningdek, tarjimada uchraydigan sun'iyliklar, muqobil termin izlashdagi muammolar, universal terminlar bilan ishlash tamoyillari tahlil qilinadi. Maqolada konkret lug'at strukturalari, mavzular bo'yicha tasnif va terminologik tizimlarning mukammalligi yoki kamchiliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *konchilik terminlari, leksikografiya, fransuz tili, o'zbek tili, termin o'zlashtirish, lug'atshunoslik, tarjima, muqobil terminlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется отражение терминов горного дела в общеязыковых словарях на узбекском и французском языках. Рассматривается классификация терминов на общие и специальные, их лексикографическая интерпретация, история формирования горной терминологии во Франции, а также пути заимствования во француско-узбекском контексте. Отдельное внимание уделяется проблемам подбора эквивалентов, трудностям перевода, а также рациональности прямого заимствования международных терминов. Проанализирована структура словарей, тематика и особенности формирования терминологической системы.

Ключевые слова: *горные термины, лексикография, французский язык, узбекский язык, заимствование терминов, словарное дело, перевод, эквиваленты терминов.*

ABSTRACT

This article analyzes the representation of mining terminology in general dictionaries of Uzbek and French languages. It discusses the classification of mining terms into general and specific categories, their lexicographic interpretation, the historical development of French mining terminology, and the ways these terms are integrated into Uzbek. The article also examines challenges in translation, artificiality in creating equivalents, and the importance of using international terms when necessary. Additionally, it evaluates dictionary structures, thematic groupings, and the overall efficiency of mining terminology systems.

Keywords: mining terminology, lexicography, French language, Uzbek language, term borrowing, dictionary studies, translation, term equivalents.

Konchilik sanoati insoniyat tarixida muhim o'rin tutgan va doimiy ravishda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ilmiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tarmoqdir. Shu bilan birga, konchilik sohasidagi atamalar va terminologiya ham o'ziga xos ilmiy izlanishlar va tilshunoslik tahlillarining obyekti hisoblanadi. Konchilik terminlari umumiy va xususiy terminlarga ajraladi. Konchilik sohasiga xos umumiy terminlar bir nechta sohalarga xos tushunchalarni ifodalovchi

universal terminlardir. Mazkur tizim terminlarining umumiy va xususiy turlarga ajratilishi ularning leksikografik talqinida ham aks etadi.

Konchilik sohasining umumiy terminlari – geologiya, muhandislik va sanoatda keng qo'llaniladigan so'zlar bo'lib, shunga ko'ra bunday terminlar turli sohaviy lug'atlardan o'rin oladi.

Konchilik sohasining xususiy terminlari (masalan, rud qazish, kon qatlamlari, flotatsiya, karer, konchi uskunasi kabi) faqat shu sohada ishlatilganligi sababli aynan konchilik terminlari lug'atlarida joy oladi. Bunday terminlar miqdorining kamligi, izohda esa "konga xos" semasining faolligi va yuqori farqlovchilik qimmatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Konchilik terminlari maxsus o'rganilish tarixiga ega. Fransuz tilshunosligida konchilik terminologik tizimi tartibga solingan va leksikografik talqini ishlab chiqilgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, XX asrning boshlarida Fransiya ilmiy asoslangan yagona konchilik terminologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalasi muhokama qilingan. Bu muammoni yechish uchun fransuz geologlari va konchilik muhandislaridan iborat maxsus komissiya tuzilgan.

1960-yillarda École des Mines va boshqa muassasalar xalqaro hamkorlik doirasida "Konchilik sohasi terminologiyasi bo'yicha tavsiyalar" tuzishga kirishgan. Natijada, 1970-yilda konchilik muhandisligi talabalari va mutaxassislar uchun mo'ljallangan "Asosiy konchilik terminlari lug'ati" chop etilgan. Shu asosda bir qator qo'llanmalar nashr qilingan bo'lib, ular keyinchalik fransuz va xalqaro konchilik olimlari tomonidan qayta ishlangan va to'ldirilgan.

1980-yillarda Fransiya "Konchilik terminologiyasi" ma'lumotnomasi chop etilgan bo'lib, unda soha olimlarining uzoq yillik mehnatlari, yirik konchilik mutaxassislarining qimmatli maslahatlari o'rin olgan. Mazkur ma'lumotnomada konchilik masalalari bo'yicha soha me'yoriy-texnik hujjatlariga mos keladigan va yetuk konchilik mutaxassislarining ilmiy qarashlarida aks etgan atamalar keltirilgan.

2000-yillarda fransuz olimlari tomonidan tayyorlangan "Konchilik terminlari spavochnigi" ham amaliy ahamiyatga ega. Albatta, ma'lumotnoma lug'at emas, shuning uchun unda terminlarning izohi emas, balki termin ifodalovchi tushunchalar sharhlangan xolos. Ba'zi joylarda izoh o'rnida ta'riflar va tasniflar ham uchraydi.

Bugungi kunda davlatlararo xalqaro hamkorlikning o'sishi konchilik sohasi terminlarini tartibga solish vazifasini dolzarb qilmoqda. Bu esa o'zbek va fransuz tillarida qo'llaniluvchi universal xarakterdagi konchilik terminlarini ham takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki xalqaro terminlarni tarjima qilish, ularga muqobil izlash yoki ularni aynan qoldirish mezonlarini har bir til doirasida ishlab chiqish o'ta murakkab va muhim masaladir.

"Konchilik sohasi atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqa lug'ati" (Toshkent, 1990) konchilik sohasiga doir dastlabki lug'atlardir. Mazkur lug'atlar fransuz yoki rus tilidagi konchilik terminologiyasi ma'lumotnomalarining tarjimalari sifatida qaralishi mumkin. Lug'atlarning tarkibi, terminlar tartibi va mazmuni shundan dalolat beradi. Shunga qaramay, bu lug'atlar o'zbek konchilik lug'atchiligida muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, soha terminologiyasining ilmiy va amaliy shakllanishida ushbu lug'atlarning roli katta.

"Konchilik terminlari lug'ati"da terminlar avval mavzuiy guruhlariga ajratilgan. Yirik mavzular ichki mikroguruhlarini aks ettiruvchi kichik mavzulardan iborat. Masalan, lug'atda quyidagi yirik mavzuiy guruhlar ajratilgan:

1. Konchilik geologiyasi va qidiruv ishlari.

2. Kon qatlamlari va rud turlari.
3. Konchilik uskunasi va texnologiyasi.
4. Konchilik jarayonlari va xavfsizlik taminoti.
5. Konchilik materiallari va qayta ishlash.

Bu mavzular o'z navbatida ichki guruhlariga bo'linadi va undan so'ng terminlar alifbo tartibida keltiriladi.

Lug'atdagi "Konchilik materiallari" deb nomlangan bo'lim quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- 5.1. Rudalar va mineral turlari.
- 5.2. Konchilik kimyoviy moddalari.
- 5.3. Qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan materiallar.
- 5.4. Konchilik materiallarining xususiyatlari va sinovi.

Ko'rinadiki, ushbu mikrosistema bir nechta ichki guruhdan iborat bo'lib, unda faqat konchilik materiallari haqida so'z boradi.

Lug'atdagi terminlarni konga xoslik darajasiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

- a) **Faqat konga xos terminlar:** rud qazish, kon qatlamlari, flotatsiya, karer, konchi uskunasi, shafta, geofizik qidiruv, mineral kristallari kabi;
- b) **Konga ham, boshqa sohalarga ham xos terminlar:** kimyoviy reagentlar, portlandtsement, gidravlik uskunalar, analizator, filtr, polimerlar, sintetik moddalar;
- c) **Konga xos bo'lmagan terminlar:** laboratoriya, sinov, statistika, xarita, loyiha, konstruktsiya, mashina.

Lug'atda so'nggi tipdagi so'zlar uchun alohida bo'lim ajratilgan. Nazariy jihatdan, bu terminlar konchilik terminosistemasiga unchalik daxldor emas.

Lug'at orqali fransuz yoki rus tilidan o'zbek tiliga uch xil yo'l bilan termin o'zlashtirilganligini aniqlash mumkin:

1. **Aynan olingan terminlar:** shafta, karer, flotatsiya, geofizika, portlandtsement, filtr, reagent, kompressor kabi.
2. **Kalkalash asosida o'zlashtirilgan terminlar:** vibroanalizator – tebranma analizator, gidrofiltr – gidrofiltrlovchi, kimyoreagent – kimyoviy reagent, elektromagnit qidiruv – elektromagnitli qidiruv, pnevmatik uskunalar – pnevmatik jihozlar kabi.
3. **O'zbek tilida muqobili topilgan terminlar:** rud qazish – extraction, kon qatlami – couche minérale, yon bag'ir – pente, tuproq qatlamlari – couches de sol, to'siq – barrière kabi.

Lug'atda terminlarning berilishida ayrim nuqsonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, lug'atda ko'p hollarda terminning o'zbekcha muqobilini ko'rsatish o'rniga terminning ma'nosini tushuntirib berishga intilish holatlari kuzatiladi. Masalan, fransuz tilida "gisement minéral" – mineral koni deb tushuntirilgan bo'lsa, o'zbek tilida "yer ostida joylashgan foydali qazilma koni" kabi uzun tushuntirish berilgan. Bunday holatlar terminning qisqa va aniq bo'lishi talabiga zid keladi.

Nazariy jihatdan, birikma ko'rinishidagi fransuzcha terminlarni imkon qadar qisqartirib, qulaylashtirib, termin shakliga keltirish mumkin edi. Masalan:

- Gisement minéral – mineral koni;
- Extraction souterraine – yer osti qazish;
- Analyse géochimique – geokimyoviy tahlil.

Albatta, taklif etilayotgan o'zbek tiliga xos yoki o'zbek nutqi uchun qulay terminlar har jihatdan mukammal deb bo'lmaydi. Zero, termin aniqligi, qisqaligi va qulayligi bilan ahamiyatlidir. Terminni qo'llash uchun qulaylashtirish termin ijadkorligining muammolaridan biridir.

Ikkinchidan, fransuz yoki rus tilidan o'zlashtirilgan har qanday terminni o'zbekchalashtirishga urinish, ularga o'zbekcha muqobil qidirish sun'iylikni keltirib chiqaradi. Masalan, lug'atlarda "karer" o'rniga "kon ochiq joyi" yoki "shafta" o'rniga "kon chuquri" kabi so'zlarning berilishi o'zini oqlamaydi. Nazariy jihatdan, fransuz tilidan o'zlashtirilgan "karer" va "shafta" terminlarini o'z holicha qoldirish maqsadga muvofiqdir. Bu terminlar qo'llash qulayligi uchun o'zbek tilida qabul qilingan. Ko'rsatilgan "muqobil terminlar" nutqda ishlatilmaydi, ilmiy muomalada qo'llanilmaydi va "o'lik" termin sifatida lug'atlarda qolib ketadi.

Tilni boyitishning samarali usullaridan biri – so'z o'zlashtirishdir. Zero, "o'zbek tilining butun xususiyatlarini saqlagan holda, uni yangi terminlar bilan boyitmoq va kengaytirmoq kerak. Bu boyitish, bir tomondan, o'zbek tilining o'z so'zlari hisobiga, ikkinchi tomondan, xalqaro so'zlar hisobiga bo'ladi. O'zbek tilida so'z topilmasa va yasalishi ham mumkin bo'lmasa, ortiqcha sun'iylikka bormasdan, to'g'ridan-to'g'ri xalqaro terminlarni olish kerak".

Ammo qayd etish lozimki, so'nggi yillarda fransuz tilidan kirib kelgan so'zlar o'rniga sun'iy ravishda arabiy yoki forsiy so'zlar qabul qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Lekin ular til va til egalar tomonidan qabul qilinmadi. Bu holat konchilik terminlari lug'atida ham o'z aksini topdi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Кончилики терминлари русча-ўзбекча қисқа луғати", Тошкент, 1990.
2. "Lexique Fondamental des Termes Miniers", École des Mines, Paris, 1970.
3. "Terminologie de l'industrie minière", France, 1985.
4. М.Ғафуров. Ўзбек тилида илмий атамалар яратиш тамойиллари. – Тошкент: Фан, 2005.
5. R. Dubois. *La terminologie française des mines*, Paris, 2002.
6. T. Rahmatullayev. *Leksikografiya asoslari*, Toshkent, 2010.
7. ISO/TC 82: *Mining terminology standards*, Geneva.
8. A. N. Chervyakov. *Special Mining Terminology and Translation*, Moscow, 1994.
9. D.Y.Khakimova Composition of the mining vocabulary, sources of origin and functional classification. Theoretical & Applied Science, международный научный журнал, Philadelphia, USA, №3, 107 2022
10. Д.Й.Хакимова Заимствование из иностранного языка в узбекской горно-геологической терминологии. Международный научный журнал "Научные горизонты" №5 (9) 2018
11. D.Y.Khakimova Method of studying the mine-technical terminology of the French language.science,research, development #13 technics and technology Berlin.2019